

MUHAMMAD ALINING «ULUG’ SALTANAT» ROMANIDA RUHIYAT TASVIRI

Gulhayo Haydarova

Qo’qon DU

O’zbek tili va adabiyoti kafedrası o’qituvchisi

h.gulhayoxon90@gmail.com<https://doi.org/10.5281/zenodo.20507539>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Muhammad Alining «Ulug’ saltanat» romanida Amir Temur ruhiyatining badiiy talqini tahlil qilinadi. Mustaqillik davrida o’zbek tarixiy adabiyotida tarixiy haqiqat va badiiylik uyg’unligi masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Maqolada muallif tarixiy manbalar («Temur tuzuklari», Nizomiddin Shomiy, Sharafiddin Ali Yazdiy asarlari) va roman matnini qiyosiy o’rganadi. Adib Amir Temur va Amir Husayn o’rtasidagi to’qnashuv misolida Sohibqironning ichki kechinmalari – achinish, o’kinch, insoniylik hislarini mahorat bilan tasvirleydi. Maqolada Muhammad Ali asarlari tarixiy faktlarni jonli, psixologik jihatdan asoslangan va ta’sirchan tarzda o’quvchiga yetkazishda muhim manba ekanligi asoslanadi.

Kalit so’zlar: Muhammad Ali, «Ulug’ saltanat», Amir Temur, ruhiyat tasviri, tarixiy roman, badiiy talqin, psixologizm, o’zbek adabiyoti.

Annotation: This article analyzes the artistic interpretation of Amir Temur’s inner spiritual world in Muhammad Ali’s novel “The Great Sultanate”. During the independence period, Uzbek historical literature places special emphasis on the integration of historical truth and artistic expression. The author of the article conducts a comparative study of historical sources (“Temur’s Code”, works by Nizomiddin Shomiy, Sharafiddin Ali Yazdiy) and the text of the novel. Using the conflict between Amir Temur and Amir Husayn as an example, the writer skillfully portrays Temur’s inner experiences — compassion, regret, and humaneness. The article concludes that Muhammad Ali’s works serve as an important means of conveying historical facts in a vivid, psychologically grounded, and emotionally impactful manner.

Keywords: Muhammad Ali, “The Great Sultanate”, Amir Temur, depiction of spirituality, historical novel, artistic interpretation, psychologism, Uzbek literature.

Аннотация: В данной статье анализируется художественная интерпретация внутреннего мира Амира Темура в романе Мухаммада Али «Великое султанство». В период независимости в узбекской исторической литературе особое внимание уделяется сочетанию исторической правды и художественности. Автор статьи проводит сравнительное изучение исторических источников («Уложения Темура», произведения Низамиддина Шами, Шарафиддина Али Язди) и текста романа. На примере конфликта между Амиром Темуrom и Амиром Хусейном писатель мастерски изображает внутренние переживания Сахибкирана — сострадание, сожаление, человечность. В статье обосновывается, что произведения Мухаммада Али являются важным средством передачи исторических фактов в живой, психологически обоснованной и эмоционально впечатляющей форме.

Ключевые слова: Мухаммад Али, «Великое султанство», Амир Темур, изображение душевного мира, исторический роман, художественная интерпретация, психологизм, узбекская литература.

Ma’lumki, tarixiy asarlar nafaqat o’tmishdagi voqealarning yilnomasi, balki xalqning milliy o’zligi, madaniy kodi va dunyoqarashining muhim manbaidir. Ular orqali ajdodlarimizning

davlatchilik tajribasi, huquq tizimi, iqtisodiy va madaniy aloqalari, diniy qarashlari va ijtimoiy munosabatlari haqida ma'lumot olamiz. Shu nuqtai nazardan, tarixiy asarlar bugungi kunda ham hayotimiz va madaniyatimizda muhim o'rinni egallaydi. Mustaqillik tufayli o'zbek xalqining o'z tarixiga munosabati tubdan o'zgardi. Biryozlama va mafkuraviy qarashlardan voz kechilib, tarixiy hodisalarga obyektiv, ilmiy va milliy manfaatlar nuqtai nazaridan yondashish imkoniyati vujudga keldi. Buning natijasida esa tarixiy xotiraning tiklanishi, ya'ni, o'tmishda ma'naviyat va davlatchilik tarixida muhim o'rin tutgan, ammo ilmiy va madaniy merosi yetarlicha o'rganilmagan allomalarning tarixiy roli qayta baholandi hamda o'zlarining munosib o'rinlariga ega bo'ldilar. Mustaqillik yillarida xorijiy arxiv va qo'lyozmalar markazlarida saqlanayotgan o'zbek xalqiga oid minglab tarixiy hujjatlar o'rganilib, ilmiy muomalaga kiritildi. Bu holat tarixiy voqealarni xolis va to'liq yoritish, yangi dalillar asosida ilgari noma'lum bo'lgan jihatlarni ochish imkonini berdi. Endilikda tarixiy voqealar faqat siyosiy baholardan xoli holda, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, geosiyosiy va psixologik omillar majmui sifatida tahlil qilinmoqda. Buning natijasida o'tmishdagi yutuq va kamchiliklar, milliy birlik va parokandalik, ijodkorlik va tanazzul sabablari chuqur ilmiy asosda izohlanmoqda.

Tarixiy asarlar bugungi kunda yangi ilmiy talqinlar bilan boyitilib, ularning o'tmishni tushunish, hozirgi zamon muammolarini hal qilish va kelajakni rejalashtirishdagi o'rni yanada oshdi. Ayniqsa, yosh avlodni vatanparvarlik, milliy g'urur va tarixiy ong ruhida tarbiyalashda tarixiy asarlarning bevosita ta'siri kattadir. Chunki bu asarlar orqali yoshlar o'z ildizlarini, ajdodlarining jasorati va donoligini bilib, ularga munosib voris bo'lib yetishadi.

Mustaqillik tufayli o'tmishni yangicha talqin qilish, tarixiy hodisalarga yuksak tafakkur bilan yondashish, ularning hozirgi kundagi ahamiyatini belgilash, ajdodlarimizning muqaddas xotirasini abadiylashtirish imkoniyatiga ega bo'ldik.

Hozirgi adabiy jarayonga nazar tashlasak, tarixiy mavzularga qayta-qayta murojaat qilinayotganining guvohi bo'lamiz. Bu jarayon Muhammad Ali ijodida ham alohida o'rin tutadi. Mustaqillikdan avval yaratilgan asarlarda ayrim shaxslar faoliyatlari, taqdirlari bir tomonlama yoritilgan bo'lsa, keyingi yillar davomida bunday xatoliklarga barham berish va haqiqatni yuzaga chiqarish maqsadida adib va shoirlar tomonidan tarixiy mavzuda turli janrlarda ko'plab asarlar yaratilmoqda. Zero, badiiy asarlarda insonlarga ta'sir etish kuchi yuksakroq ekanligi ayni haqiqatdir. Tarixiy shaxslarni badiiy asarlarda bosh qahramon darajasida tasvirlash M.Ismoilov, O.Yoqubov, P.Qodirov, E.Samandar, T.Hayit, A.Dilmurod kabilarning ijodlarida muhim o'rin tutadi. Bunday yozuvchilar sirasiga Muhammad Alini ham kiritish mumkin.

Muhammad Ali o'zining she'rlari, dostonlari va romanlariga asosiy obyekt sifatida Sohibqiron Amir Temur obrazini tanlagan. Adibning «Gumbazdagi nur» dostoni va «Sarbadorlar» romanida Amir Temur shaxsi yuksak mahorat bilan tasvir etilgani bejiz emas. Adibning «Ulug' saltanat» romani ham shu yuksak maqsadning ro'yobi hisoblanadi. Romanga Amir Temur hayotining eng muhim davrlari asos qilib olingan. Bunda yozuvchi o'tmish voqealarini qayta hikoyalashni emas, balki, ajdodlarimizning ma'naviy dunyosini ochib berishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Gulbahor Yusupova ta'biri bilan aytganda, yozuvchining mahorati shundaki, u Amir Temurga xos bo'lgan xususiyatlarni xarakter mantiqi nuqtai-nazaridan kelib chiqib, kitobxonga birma-bir yetkazib beradi¹.

Ma'lumki, tarixiy asarlarda tarixiy haqiqatga badiiylik baxsh etiladi, biroq yozuvchi tarixiy faktlardan asos oladi. Tarixiy hujjatlarda qayd etilishicha, 1370-yilning aprel oyida Amir Temur va

¹ G.Yusupova. Muhammad Alining “Ulug' saltanat” romani haqida. // “O'zbek tili va adabiyoti” jurnali. 2004-yil. 1-son. 72-bet

Amir Husayn o'rtasida hal qiluvchi jang bo'lib o'tadi. Jangda Amir Husayn Temurbekdan yengiladi va Amir Kayxusrav tomonidan qatl etiladi².

Mazkur voqea «Temur tuzuklari»da quyidagicha keltirilgan: «Amir Husayn qarshi chiqib, men bilan jang qildi. Oxiri qochib qal'aga kirib oldi... o'z qilmishi tufayli ko'rgiligini ko'rdi³».

Nizomiddin Shomiyning «Zafarnoma»sida esa Amir Husayn voqeasi tubandagicha akslangan: «Husaynni qasosgohga olib borib yasoqqa yetkazdilar... Amir Husayn voqeasi nihoyasiga yetib, Balx mamlakati egallangach... Temurning sohibqironligi ovozi olamga yoyildi⁴».

Yuqoridagi tarixiy hujjatlar faqat Husaynning yengilishi va o'limi tafsilotini yoritishga xizmat qiladi. Muhammad Ali mazkur manbalardan chetga chiqmagan holda, ayni shu o'rinda Amir Temur ruhiyatining tasvirini beradi.

Yozuvchining mahorati shundaki, u Amir Temur faoliyati va ruhiy holatini to'g'ri ko'ra bildi va talqin eta oldi. Asarda tasvir qilinishicha, Amir Temur va Amir Husayn o'rtasidagi hal qiluvchi jangdan so'ng, Temurbek Husaynni qo'lga tushiradi va do'stining abgor ahvoliga achinadi, qalbi ruhiy iztiroblar-u qiynoqlar iskanjasida azoblanadi. Amir Temurning bu holati romanda quyidagicha ifodalanadi: «... bir paytlar kechgan xushnud damlar esiga tushdi... Amir Temur va Amir Husayn qanday yaqin sirdosh do'st edilar... Umruguzaronlik yillari tashvishli va shirin damlar... Ne-ne ardoqli yillar ortda qolib ketdi-yal Eh!... O'tgan yillarning vafo qilmaganidanmi yoki do'st deb ishongan kishisi, oxir-oqibat mardum qoshida mana bunday xor-u zor, abgor bo'lib qolganidanmi, qandaydir alam-u o'kinch Temurbek vujudini chulg'ab oldi. O'tgan ishga o'kinishni odat qilmagan esa-da, hozir buning uddasidan chiqa olmadi. Yurak-bag'rim yonganda ko'zlarim yig'lar deganlariday, birdan Temurbekning ko'zlari yoshga to'lib yerga toma boshladi...⁵» Mazkur tasvirni o'qigan kitobxonning ko'z o'ngida butun dunyoni zir titratgan, beshafqat janglarda qahramonliklar ko'rsatgan Temurning ruhiy olami namoyon bo'ladi, «butun asar bo'ylab tirik Amir Temur kezib yur⁶...»ganini his qiladi. Buyuk Temur qalbini titroqqa solgan bu kabi vaziyatlarni kitobxon ham o'z boshidan kechirgandek bo'ladi. Yozuvchi Sohibqiron Temur obrazini yaratishda qahramonning psixologik holatini tasvirlashni yetakchi o'ringa qo'yadi. Mana shu tasvir vositasida yozuvchi Amir Temur ruhiy olamining turfa qirralarini, ko'ngil kechinmalari-yu qalb tug'yonlarini his qila oldi va buni sohibqironning insoniy sifatlariga qorishtirib, kitobxon ko'z oldida namoyon qila oldi.

Xulosa qilib aytganda, Muhammad Alining romanlarida tarixiy haqiqatlar shunchaki fakt qilib keltirilmasdan, balki badiiyat bilan birgalikda kitobxoniga ta'sirli tarzda yetkaziladi. Yozuvchi tarixiy siymoni ruhiy holatdan ayro holda tasvirlab emas, bil'aks, uning tilsimli olami-ko'ngil dunyosiga kitobxonni olib kirgan. Bu esa o'quvchida tarixiy asarlarga bo'lgan ishtiyoqni yanada oshiradi. Muhammad Alining «Ulug' saltanat» romani tarixiy asar va badiiy adabiyot sintezining yorqin namunasi. Adib tarixiy haqiqatdan chetga chiqmagan holda, uni jonli, ta'sirchan va psixologik jihatdan asoslangan tarzda talqin etgan. Romanda Amir Temur faqat buyuk sarkarda va davlat arbobi sifatida emas, balki murakkab ichki kechinmalarga ega inson sifatida gavdalantirilgan. Yozuvchining eng muhim yutug'i shundaki, u tarixiy shaxsning ruhiy olamini – achinish, o'kinch, sadoqat va insoniylik kabi his-tuyg'ularni – badiiy jihatdan ishonarli va

² Sharafiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. – T., Sharq, 1997. B.67.

³ Temur tuzuklari. – T., O'zbekiston, 2011. B.52.

⁴ Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. – T., O'zbekiston, 1996. B.85-86.

⁵ Muhammad Ali. Ulug' saltanat. I kitob. – T., Sharq, 2003. B.89.

⁶ G.Yusupova. Muhammad Alining «Ulug' saltanat» romani haqida. // “O'zbek tili va adabiyoti” jurnali. 2004-yil. 1-son. 72-bet

ta'sirchan ifodalagan. Bu esa o'quvchida tarixiy shaxslarga nisbatan empatiya uyg'otadi va tarixiy adabiyotga qiziqishni kuchaytiradi. Maqolada keltirilgan tahlillar Muhammad Alining tarixiy romanchilikdagi o'rnini va uning uslubiy mahoratini ilmiy asosda isbotlaydi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. G.Yusupova. Muhammad Alining “Ulug’ saltanat” romani haqida. // “O’zbek tili va adabiyoti” jurnali. 2004-yil. 1-son.
2. Sharafiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. – T., Sharq, 1997.
3. Temur tuzuklari. – T., O’zbekiston, 2011.
4. Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. – T., O’zbekiston, 1996.
5. Muhammad Ali. Ulug’ saltanat. I kitob. – T., Sharq, 2003.